

SO'FI OLLOYOR VA "SABOT-UL OJIZIN": MA'NAVIY KAMOLOTNING YANGICHA TALQINDA

Soliyeva Gulshanoy

Farg'ona davlat universiteti talabasi

Anotatsiya: Ushbu maqolada So'fi Olloyorning "Sabot-ul ojizin" asari tahlil qilinadi. Asarda insonning ichki ruhiy dunyosi, sabr-toqat va imon bilan bog'liq masalalar ustuvor mavzu sifatida ko'tarilgan. Muallif, tasavvufiy qarashlar va hayotiy voqealarni uyg'unlashtirib, inson qalbining nozik jihatlarini ochib beradi. Maqolada asaridagi asosiy motivlar, syujet rivoji, obrazlar va ularning badiiy ifodasi, shuningdek, axloqiy va falsafiy mazmuni o'rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, asar nafaqat diniy, balki madaniy va ma'naviy meros sifatida ham ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatildi.

Kalit so'zlar: So'fi Olloyor, Sabot-ul ojizin, sabr, tasavvuf, ruhiy dunyo, imon, badiiy tahlil.

O'zbek mumtoz adabiyotining ma'naviy-falsafiy manzarasida So'fi Olloyor nomi alohida o'rin egallaydi. XVII–XVIII asrlar oralig'ida yashab ijod qilgan bu mutasavvif shoirning "Sabotul ojizin" asari esa o'zbek tasavvufiy fikrining eng muhim manbalaridan biridir. Bugungi kunda asar ko'pincha diniy-ta'limiy risola sifatida ko'rilsa-da, undagi psixologik, sotsiologik, lingvistik va madaniy qatlamlar hali to'la o'rganilmagan. So'fi Olloyor o'z davrining faqat mashoyixi emas, balki ma'rifat va jamiyat o'zgarishiga da'vat qiluvchi murshidi ham bo'lgan. "Sabotul ojizin"ning yozilish davri Movarounnahrda siyosiy beqarorlik kuchaygan pallaga to'g'ri keladi. Ana shu ziddiyatli muhit shoirni "komil inson" konsepsiyasini boyitishga, jamoada ma'naviy uyg'unlashga chaqiruvchi asar yozishga undagan. Asardagi ko'plab o'gitlar faqat diniy-didaktik xarakterga ega emas, balki ijtimoiy jarayonlarni barqarorlashtirish bo'yicha psixologik mexanizm vazifasini ham bajargan. Bu jihat hozircha ilmiy adabiyotlarda keng ochilmagan.

So'fi Olloyor "Sabot-ul ojizin" asarini an'anaviy hamd va na'tdan boshlaydi. Hamd qismida Allohning subutiy sifatlarini sanab, har biriga ta'rif va izoh berib o'tadi. Shundan so'ng na't qismida payg'ambarimiz ta'rifi keltiriladi. "Shohlar shohi, din sham'i Muhammad alayhissalomdir" deya yozadi. Hamd va na't boblaridan so'ng kitob yozilish sabablarini aytadi. Unga ko'ra, "Sabotul ojizin" avval forsiy tilda yozilgan. U kitob aqidalar va ulardan chiqqan furu'lar haqida edi. Ammo forsiy tilda bo'lsa-da, so'z ma'nosi bilan kishilarni Haq taolo tomon torttib turuvchi jozibaga ega bo'ldi. Shundan so'ng asarni turkiy tilda yozishga kirishdi. Asar umumiy mazmunda nasihatnoma bo'lsa-da, uning ichki tuzilmasi murakkab. Asar bir necha qismlardan iborat bo'lib,

unda insonning hayotiy sinovlari, ruhiy kechinmalari va sabr bilan bog'liq voqealar ketma-ketligi mavjud. Har bir bob inson qalbining o'zgarishi va ichki o'sish jarayonini ko'rsatadi. Muallif shuningdek, tabiiy va ijtimoiy muhitni ruhiy jarayon bilan uyg'unlashtiradi, bu esa o'quvchida chuqur hissiy ta'sir qoldiradi. So'fi Olloyor tasviriy va ma'naviy tafakkurni uyg'unlashtirgan. U metafora, o'xshatmalar va hikoya shaklidagi tasvirlardan foydalanib, asarning falsafiy mazmunini yanada chuqurlashtiradi. Asarda hadislar va hikmatlar orqali sabr va toqatning ahamiyati ko'rsatiladi. Asardagi aqliy-ma'rifiy qatlamda ilm, aql, idrok haqidagi qarshlar bayon etilgan. Axloqiy-didactic qatlamda esa odob, hayo, sabr, saxovat tushunchalari bayoni beriladi. Ularning har birini izohlashda Qur'oni Karim oyatlaridan, hadislardan namunalar beriladi. Tasavvufiy qatlamda nafs tarbiyasi, ruhiy sayr, shukr va rizo holatlarini yozadi. Asar kognitiv xarita sifatida ko'rilishi mumkin: undagi tushunchalar oddiy nasihat emas, balki inson ongida fazilatlar iyerarxiyasini shakllantiruvchi mental modeldir. Bugungi psixologiyada bu — ma'naviy qarorlar qabul qilish "algoritmi" sifatida baholanishi mumkin. So'fi Olloyor "sabr"ni passivlik emas, balki ruhiy bardoshlilik sifatida talqin qiladi. Asarda sabrning uch darajasi ko'rsatiladi:

Sabr bar ma'siyat – gunohdan tiyilish qat'iyati.

Sabr bar toat – ibodatni davomli saqlash.

Sabr bar musibat – sinovlarga qarshi ruhiy tayyorgarlik. Bu uch bosqich zamonaviy psixologiyadagi "stressga chidamlilik modeli" bilan uyg'un. Demak, So'fi Olloyor sabrni diniy kategoriya emas, balki psixologik immunitet sifatida tasvirlaydi. Bundan tashqari ilmga ham to'xtalib ilmni "bandaning ziynati" sifatida ta'riflaydi. So'fi Olloyor ilmni faqat ma'lumot yig'ish emas, balki inson ongining yagona yorug'lik manbai deb ko'rsatadi. Bu qarash XIX–XX asr ma'rifatchilarining "ilm — najot yo'li" g'oyasiga bevosita asos bo'lgan intellektual zamin sifatida baholanishi mumkin.

"Sabotul ojizin"ning eng o'ziga xos jihati — sodda, xalqona, lekin chuqur falsafiy tildan foydalanishdir. "Sabot-ul ojizin" inson ruhiyatini boyitadi, asar tasavvufiy falsafa va hayotiy voqealarni uyg'unlashtirib, o'quvchiga nafaqat axloqiy, balki estetik zavq ham beradi. Asar ma'naviy tarbiya, diniy bilim berish va madaniy merosni o'rganish nuqtai nazaridan ahamiyatga ega. So'fi Olloyor asri uchun emas, balki butun musulmon Sharqining ma'naviy tafakkuri uchun universal dastur yaratgan. "Sabotul ojizin" o'zbek adabiyotida faqat nasihatnoma emas, balki inson ruhiyati, jamiyat dinamikasi va ma'rifatning ijtimoiy kuchi haqidagi mukammal konseptual risoladir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S.Olloyor.Sabot ul-ojizin. – Toshkent, 1991.
2. B.Valixo'jayev. O'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent, 1993.
3. B.Qosimov. O'zbek mumtoz adabiyoti. – Toshkent, 2008.